SHAHAR SHAROITIDA JANG OLIB BORISH TAKTIKASINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI

Xusanboyev Behzod Ulug‘bek o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Magistratura tinglovchisi, kapitan

Annotatsiya. Ushbu maqolada shahar sharoitida jangovar harakatlar olib borish taktikasining tarixiy rivojlanish bosqichlari qiyosiy-tarixiy hamda tizimli tahlil metodlari asosida o'rganiladi. Tadqiqot doirasida qadimgi davr qo'rg'on janglaridan tortib zamonaviy Mosul operatsiyasigacha bo'lgan turli harbiy mojarolar materiallari jalb etildi. Stalingrad (1942-1943), Grozni (1994-1995; 1999-2000) va Falludja (2004) janglari tarixiy-qiyosiy tahlilning asosiy ob'ektlari sifatida tanlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, shahar muhitida taktik moslashuvchanlik texnik ustunlikka qaraganda ko'proq strategik natija belgilaydi. Shu bilan birga, kichik taktik guruhlar barcha davrlarda shahar janglarining universal birligiga aylangani aniqlandi. Chiqarilgan xulosalar Respublikamiz Qurolli kuchlari harbiy ta'limotini takomillashtirish uchun metodologik asos bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: shahar janglari, harbiy taktika, taktik evolyutsiya, shahar operatsiyalari, jangovar tajriba, quruqlik operatsiyalari, shahar mudofaasi.

Аннотация. В настоящей статье исследуются исторические этапы развития тактики боевых действий в городских условиях с применением сравнительно-исторического и системного методов анализа. В рамках исследования изучены материалы различных военных конфликтов - от античных осадных операций до современной операции в Мосуле. Сражения под Сталинградом (1942-1943), в Грозном (1994-1995; 1999-2000) и Фаллудже (2004) выбраны в качестве основных объектов историко-сравнительного анализа. Результаты показывают, что тактическая адаптивность в условиях урбанизированной среды в большей степени определяет стратегический исход, чем техническое превосходство. Вместе с тем установлено, что малые тактические группы во все эпохи становились

универсальной единицей городского боя. Сделанные выводы могут служить методологической основой для совершенствования тактического обучения Вооружённых сил Республики.

Ключевые слова: городские бои, военная тактика, тактическая эволюция, городские операции, боевой опыт, наземные операции, городская оборона.

Abstract. This article examines the historical development stages of combat tactics in urban environments using comparative-historical and systemic analysis methods. Various military conflict materials ranging from ancient siege operations to the modern Mosul operation were studied within the research framework. The battles of Stalingrad (1942-1943), Grozny (1994-1995; 1999-2000), and Fallujah (2004) were selected as primary objects of historical-comparative analysis. Results demonstrate that tactical adaptability in urbanized environments determines strategic outcomes to a greater degree than technical superiority. It was also established that small tactical groups became the universal unit of urban combat across all periods. The drawn conclusions may serve as a methodological basis for improving the tactical training of the Republic's Armed Forces.

Keywords: urban warfare, military tactics, tactical evolution, urban operations, combat experience, ground operations, urban defense.

Kirish - Harbiy taktika tarixi - bu texnologiya va muhitning o'zaro dialektikasi natijasida shakllangan, murakkab va ko'p qirrali jarayon. Ushbu jarayonning eng ziddiyatli tomonlaridan biri shahar muhitidagi janglar, ya'ni “shahar janglari” (urban warfare) deb atalmish harbiy fenomendir. Qadim zamonlardan buyon aholi punktlari nafaqat strategik maqsad, balki harbiy harakatlar olib boriladigan murakkab operatsion sahnaga ham aylangan.

Harbiy san'at tarixiga qarasak, Troya jangidan (mil. av. XII asr) tortib 2016 - 2017 yillardagi Mosul operatsiyasigacha bo'lgan barcha yirik shahar janglari bitta umumiy xususiyatga ega: shahar muhiti mudofaachilarga kuchli katalitik imkoniyat yaratadi. Tor ko'chalar, baland binolar, yer osti kommunikatsiyalari, tinch aholi va murakkab topografiya - bularning hammasi hujum qiluvcchi kuchlar uchun jiddiy taktik

to'siq hosil qiladi [1, b. 45-47]. Aynan shu sababli harbiy tadqiqotchilar shahar sharoitida jangovar operatsiyalar olib borishni “alohida harbiy san'at” sifatida ta'riflaydilar [2, b. 17].

Masalaning dolzarbligi faqat tarixiy qiziqish bilan cheklanib qolmaydi. Xalqaro statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2018-yilga kelib yer sharidagi aholining 55 foizdan ortig'i shaharlarda istiqomat qilmoqda; 2050-yilga borib bu ko'rsatkich 68 foizga yetishi kutilmoqda [3, b. 1]. Bu holat kelajakdagi harbiy mojarolar asosan urbanizatsiyalashgan muhitlarda kechishini sezilarli darajada ehtimollashtirib bormoqda. Harbiy ekspert Robert Scales bu yo'nalishni “XXI asrda Klauzevsitsni qayta o'qish” zaruriyati bilan bog'liq asosiy muammo sifatida baholagan [4, b. 14].

Harbiy fanlarning kontekstida ushbu mavzu hali yetarlicha sistemali tadqiq etilmagan. Mavjud adabiyotlar asosan tarjima asarlar va xorijiy ta'limotlarning harbiy amaliyotiga moslashtirilmagan iqtiboslaridan iborat. Mazkur maqola aynan shu kamchilikning bir qismini bartaraf etishga mo'ljallangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagicha: shahar janglari taktikasining rivojlanishi qadimiy davr qamal usullaridan zamonaviy sun'iy intellekt va dron texnologiyalari ishlatilayotgan operatsiyalargacha bo'lgan yaxlit tarixiy-qiyosiy doirada harbiy fanlarda tizimlashtirilmoqda. Tadqiqotning asosiy maqsadi - har xil tarixiy davr va geografik mintaqalardagi shahar janglarini qiyosiy tahlil qilish orqali taktik evolyutsiyaning umumiy qonuniyatlarini aniqlash hamda zamonaviy harbiy amaliyot uchun amaliy xulosa chiqarishdan iborat.

Metodologiya - Tadqiqot uslubiy jihatdan uchta parallel yondashuvga tayanadi. Birinchisi - tarixiy-qiyosiy metod. Bu usul turli davr va geografik hududlardagi shahar janglarini bir-biriga nisbatan baholash, o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda harbiy ta'limotning rivojlanish tendensiyalarini kuzatish imkonini beradi. Jumladan, Ikkinchi jahon urushidagi Stalingrad jangi bilan 1994–1995 yillardagi Grozni operatsiyasi taktik yondashuvlar nuqtai nazaridan bevosita qiyoslandi.

Ikkinchi usul - tizimli tahlil. Bu yondashuv orqali shahar janglari taktikasini belgilovchi omillar - harakat erkinligi, aloqa tizimlari, texnika samaradorligi, axborot muhiti, psixologik omillar va tinch aholining roli - yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqildi.

Tizimli yondashuv alohida tarixiy faktlar o'rniga ularni bir-biriga bog'laydigan umumiy qonuniyatlarni ko'rish imkonini beradi [4, b. 32].

Uchinchi usul - manbalar tahlili. Harbiy nizomlar (xususan, AQSh Quruqlik kuchlari FM 3-06 nizomining 1979, 1992 va 2006-yil nashrlari), qo'mondonlarning jangovar xotiralari, arxiv hujjatlari hamda harbiy-tarixiy akademik monografiyalar asosiy manba guruhlarini tashkil etdi [5]. Manbalar tanlashda ularning birlamchi yoki ikkilamchi maqomi, muallif salohiyati va ilmiy referenslik ko'rsatkichi asosiy mezon bo'ldi. Sovet-Rossiya harbiy-ilmiy merosi va G'arb (asosan Anglo-saks) harbiy-akademik an'analari bir xil tanqidiy munosabat bilan ishlatildi, bu esa bir tomonlama xulosalar chiqarish xavfini kamaytirdi.

Natijalar va tahlil - Qadimgi va o'rta asrlardagi qamal va shahar janglari

Shahar muhitida jang olib borish san'ati miloddan avvalgi asrlarga borib taqaladi. Qadimgi Bobil, Misr va Yunon-Rim sivilizatsiyalarida qo'rg'on va aholi punktlarini egallash harbiy strategiyaning markaziy bo'g'inlaridan birini tashkil etgan. Bu davrning asosiy taktik usullari to'g'ridan-to'g'ri hujum (ishg‘ol), uzoq muddatli qamal (qurshob olish), suvni va oziq-ovqatni kesib qo'yish hamda ichkaridan yordamchilarni jalb qilish edi [1, b. 45-48].

Milodiy 70-yilda Rim legionlarining Quddusni egallashi bu davrning eng yaxshi o'rganilgan harbiy misollaridan biri hisoblanadi. Tit qo'mondonligidagi qo'shin uchta qo'shimcha mudofaa devori bilan himoyalanayotgan Irod qasriga yo'l ochish uchun oldinma-ketin turli kvartallarni bo'lib-bo'lib egallab bordi. Ushbu operatsiya harbiy tarix adabiyotida zamonaviy “kvantal tozalash” taktikasining dastlabki namunaviy ko'rinishi sifatida e'tirof etiladi [1, b. 48].

1453-yil Konstantinopol jangi o'rta asrlar shahar janglarining eng namunali misoli hisoblanadi. Fotih Sultan Mehmed portativlar va yangi ishlab chiqilgan katta kalibrli to‘plardan strategik foydalanib, 1400 yillik mustahkam mudofaani 53 kunda sindirdi [6, b. 92]. Bu holat texnologik innovatsiyaning taktik evolyutsiyaga ta'sirini ko'rsatishning dastlabki aniq misoli sifatida qimmatlidir: har bir yangi qurol texnologiyasi uzoq muddatda mavjud mudofaa tizimini inqirozga uchratadi.

XVII–XIX asrlardagi o'tish davri va Napoleon urushlarining taktik darslari:

Artilleriya texnologiyasining rivojlanishi shahar mudofaasining fizikal mantiqini tubdan o'zgartirdi. Mustahkam tosh devorlar tobora zaif mudofaa vositasiga aylana bordi; ammo bu o'zgarish bir yo'la yangi muammo ham tug'dirdi - artilleriya bir tomondan devorlarni parchalasa, ikkinchi tomondan vayron bo'lgan kvartallar hujum qiluvchi kuchlar uchun ham xavfli to'siqqa aylandi. Ko'cha tabiati o'zgardi: ochiq ko'chalar o'rnini xarobalar, pana nuqtalari va ko'rinishni to'suvchi devorlar egalladi [7, b. 215].

Napoleonik urushlar (1799–1815) davridagi Ispaniyaning Saragossa (1808–1809) mudofaasi yangi harbiy fenomenni ko'rsatdi: professional qo'shinlar tartibsiz shahar mudofaachilari tomonidan og'ir talofatga uchratildi. Shahar aholisi har bir hovli va ko'chani alohida jangovar maydonga aylantirdi. O'sha paytdan boshlab harbiy nazariyachilar “hududni egallash” va “shaharni egallash” tushunchalarini bir-biridan aniq ajrata boshladi. Saragossa ushbu farqni birinchi marta nazariya darajasiga ko'targan jang sifatida harbiy tarixda qoldi.

Birinchi jahon urushi: shahar muhitidagi janglarning dastlabki darslari:

Birinchi jahon urushida (1914–1918) harbiy harakatlarning asosiy og'irligi ochiq maydonlar, qazilmalar va dala istehkomlariga tushdi. Biroq Iprdagi, Verdundagi va Sommadagi operatsiyalarda aholi punktlari atrofidagi va ichidagi janglar alohida o'rin tutdi. Xarob bo'lgan shahar kvartallarida uy-joylar, kanallar va xarobalar o'ziga xos taktik landshaftni hosil qildi [8, b. 34].

Bu urushning asosiy taktik xulosasi quyidagicha: vertikal ko'rinish (yuqoridan quyi burchakda o'q uzish) va “o'chirilgan ko'rish chizig'i” (bino devorlarining o'q va kuzatuvni to'sishi) harbiy harakatlarni boshqa har qanday jang muhitiga qaraganda tubdan boshqacha tashkil etishni talab qiladi. Artilleriya qo'llab-quvvatlash amaliy jihatdan samarasiz bo'lib qolgan holda, piyoda askarlar kichik guruhlarda, qisqa masofali qurollar bilan harakatlanishga majbur bo'ldi. Ishg‘ol guruhlar tushunchasi aynan shu urushda paydo bo‘ldi.

Ikkinchi jahon urushi - shahar janglarining klassik laboratoriyasi:

Ikkinchi jahon urushi (1939–1945) shahar muhitidagi harbiy taktika rivojlanishida keskin burilish nuqtasi bo'ldi. Bu davrda Stalingrad, Berlin, Varshava va Manila shaharlarida olib borilgan jangovar operatsiyalar harbiy fanda alohida o'rganiladi.

Stalingrad (1942–1943). Kiyevdan Qizil Armiyaning chekinishi va Volga bo'yidagi ushbu strategik shahar uchun boshlanishi kutilmagan jang harbiy tarixning betakror sahifasiga aylandi. Nemis qo'mondonligi dastlab qudratli artilleriya va aviatsiya zarbalari orqali shaharni bir necha hafta ichida egallash mumkin, deb hisoblardi [9, b. 287]. Bu hisob-kitob muvaffaqiyatsiz chiqdi.

General Vasiliy Chuikov rahbarligidagi 62-armiya “shturm grupp” taktikasini joriy qildi: 5–8 kishilik kichik guruhlar binolarni birma-bir tozalardi. Ushbu guruhlar devor teshishlari, quvurlar va yer osti yo'laklaridan foydalanib, nemis artilleriyasi va aviatsiyasining ta'sirini minimumga tushirdi [9, b. 312–315]. “Uyma-uy, xonama-xona” jang tamoyili mana shunday sharoitda amaliy harbiy tamoyilga aylandi. Stalingraddagi asosiy taktik xulosalar to'rtta edi: a) shahar muhiti mudofaachilarga kuchli ustunlik beradi; b) artilleriya ko'pincha o'z qo‘shinlariga zarar yetkazadi;c) kichik guruhlar moslashuvchanlikda yirik qo'shinlarga nisbatan ustun keladi; d) vertikal makon - binolar tomlari va yer osti tizimi - strategik ahamiyat kasb etadi.

Berlin (1945). Sovet qo'mondonligi Stalingrad tajribasini o'rganib, Berlin operatsiyasiga 416 ming askar, 6 250 tank va 7 500 artilleriya quroligacha bo'lgan kuchlarni safarbar etdi [10, b. 176]. Texnik va sonli ustunlikka qaramay, Berlin uchun jang 21 kun davom etdi hamda Sovet armiyasiga 80 mingdan ortiq halokat va yaradorlar berdi. Bu raqam shahar muhitida mudofaaning naqadar kuchli ekanini yana bir bor tasdiqladi.

Jadval 1. Ikkinchi jahon urushining asosiy shahar operatsiyalari

Shahar	Davr	Hujum qiluvchi tomon	Davomiyligi	Talofat (hujum qiluvchi tomonda)	Asosiy taktik xulosa
Stalingrad	1942–1943	Vermakht	200 kun	~750 000	Shturm guruhlari; vertikal makon
Berlin	1945	Qizil Armiya	21 kun	~80 000	Ustunlikka qaramay yuqori narx
Varshava	1944	Vermakht	63 kun	~10 000	Psixologik bosim; qo'zg'olon bostirish
Manila	1945	AQSh/Filippin	29 kun	~1 000	Aholi talofati; taktik muvofiqlashish

Sovuq urush davri (1945–1991): nazariy umumlashtirishlar va amaliy sinovlar:

1945-yildan keyingi davrda yirik harbiy davlatlar shahar operatsiyalari tajribasini o'zining harbiy ta'limotlariga kirita boshladi. Biroq Sovuq urush davrida asosiy diqqat yadroviy deterrans va Yevropaning keng tekisliklaridagi keng ko'lamli tanklar janglariga qaratildi; shahar janglari esa ikkinchi darajali masala bo'lib qoldi [11, b. 67].

1968-yilgi Hue shahri uchun jang (Vetnam) - ushbu davrning muhim amaliy sinovi. AQSh dengiz piyodalari va Janubiy Vetnam qo'shinlari Viet Cong hamda Shimoliy Vetnam qo'shinlari tomonidan 31 yanvar 1968-yil egallangan Hue shahrini 26 kunda qaytarib oldi. Ammo ushbu operatsiya Amerika harbiy ta'limotidagi jiddiy kamchilikni ochib berdi: shahar operatsiyalari FM standartlarida yetarlicha qoplangan emas edi va bu harbiy xarajatda juda qimmatga tushdi [12, b. 123].

Livandagi fuqarolar urushi (1975–1990) va Isroilning 1982-yilgi Beyrut operatsiyasi esa harbiy-siyosiy ta'sirning yangi o'lchovini ko'rsatdi: ommaviy axborot vositalarining

real vaqtda operatsiyalarni yoritishi harbiy harakatlarni nafaqat harbiy, balki siyosiy-ijtimoiy muammoga aylantirdi. Ushbu holat harbiy-siyosiy munosabatlar bo'yicha jiddiy munozaralar boshlanishiga olib keldi [13, b. 34–38].

Grozni janglari: texnik ustunlikning chegaralari:

1994–1995 va 1999–2000 yillardagi Grozni uchun janglar yangi davrning eng ko'p o'rganilgan shahar janglariga aylandi. Birinchi chechen urushida Rossiya qo'shinlari 1994-yil 31-dekabrda strategik muhim bu shaharga hujum boshladi. Dastlabki reja bir necha kunlik operatsiyani nazarda tutgan edi; haqiqiy natijasi esa tubdan boshqacha chiqdi.

Chechenlar puxta mudofaa tizimini yaratgan edi: har bir bino potensial jangovar nuqtaga aylantirildi, yer osti kanalizatsiya tizimlari harakatlanish va ta'minot liniyasi sifatida ishlatildi, RPG-7 bilan qurollangan granatamyotchilar o'z-o'zini boshqaruvchi kichik guruhlar tarzida harakat qildi [14, b. 58]. granatamyotchi, pulemyotchi va snayperdan iborat uchlik tarkibli “troyka” eng samarali taktik birlikka aylandi. Natijada, bir necha yuzdan iborat Chechen jangovar guruhlar minglab rus askarini uzoq vaqtga bandlab qo'ydi.

Amerikalik harbiy tahlilchi Thomas L. tomonidan o'tkazilgan puxta tahlil Rossiya qo'shinlari oldida paydo bo'lgan beshta asosiy muammoni ko'rsatdi: qo'shinlararo koordinatsiya yetishmovchiligi, shahar topografiyasini va qurilishini bilmaslik, kichik guruhlar taktikasining o'rganilmaganligi, ma'lumot to'plash va axborot ustunligini yo'qotish hamda pastlashgan jangovar ruh [14, b. 71–74].

Ikkinchi chechen urushida (1999–2000) Rossiya qo'mondonligi bu xatolarni hisobga olgan edi. Bu safar avval keng miqyosli artilleriya va aviatsiya zarbalari bilan shahar deyarli vayron qilindi, so'ng kichik taktik guruhlar asosida ichkariga kirildi. Harbiy nuqtai nazardan “muvaffaqiyat” qayd etilgan bo'lsa-da, shaharga etkazilgan zarar va tinch aholi talofati gumanitar ofat miqyosini oldi. Bu holat zamonaviy harbiy etika va xalqaro gumanitar huquq doirasida hali ham keng muhokamaga sabab bo'lmoqda [13, b. 234].

Falludja (2004): taktika va strategik natija o'rtasidagi farq:

“Phantom Fury” nomli AQSh va Iroq qo'shinlarining 2004-yil noyabrida Falludjada olib borgan operatsiyasi zamonaviy harbiy fanda taktik rejalashtirishning namunaviy

misoli sifatida o'rganiladi. Operatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar edi: avvaldan tinch aholini shahardan evakuatsiya qilish muvaffaqiyatli amalga oshirildi; kuchlar uch tomondan bir vaqtda shaharga kirdi; ommaviy axborot vositalari bilan muvofiqlashtirilgan axborot operatsiyalari parallel ravishda olib borildi; har bir bino uchun alohida tozalash joriy etildi [16, b. 89–92].

Biroq taktik muvaffaqiyat strategik natijaga olib kelmadi. Operatsiyadan keyin guruhlar boshqa shaharlarga tarqalib ketdi va kurash yangi joyda davom etdi. Yaxshi rejalashtirilgan taktik operatsiya umumiy strategik muvaffaqiyatni kafolatlamaydi - bu Falludja jangi bergan eng muhim siyosiy-harbiy dars bo'ldi.

Mosul (2016–2017) va texnologik transformatsiya:

Mosul shahri uchun jang (2016–2017) o'z ko'lami jihatidan tarixdagi eng yirik shahar janglaridan biriga aylandi. Iroq qo'shinlari va xalqaro koalitsiya kuchlarining 9 oy davom etgan operatsiyasi bir qancha muhim harbiy-taktik xulosalar berdi.

Birinchidan, zamonaviy kuchlar texnik jihatdan ustun bo'lsa ham, shaharga chuqur o'rnashgan raqibga nisbatan bu ustunlik strategik natijani kafolatlamaydi. 2 millionlik shaharning eski qismida o'ta murakkab mudofaa tizimini joriy qildi: yerga ko'milgan minalar, ko'cha to'siqlari, snayperlar, o'z joniga qasd qiluvchi kamukadzechilar va modifitsiya qilingan savdo dronlari [17, b. 145–152].

Ikkinchidan, dronlar zamonaviy shahar janglarida ikki tomonlama rol o'ynamoqda - kuzatuv va bevosita hujum vositasi sifatida. DOID arzon tijorat dronlarini granatlar va portlovchi moddalar bilan jihozladi. Koalitsiya kuchlarining ushbu qurolga qarshi dastlab yetarli elektron kurash choralarini topishga imkoni bo'lmagan edi [17, b. 152–156].

Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlar va real vaqt video ma'lumotlar nafaqat axborot urushi quroli, balki operatsiyaning strategik o'lchovini belgilovchi omilga aylandi. Mosul tajribasi zamonaviy shahar janglarida axborot maydonini egallash harbiy maydonni egallash bilan teng ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi.

Taktik evolyutsiyaning umumiy qonuniyatlari:

Yuqoridagi davrlar va holatlar tahlilidan quyidagi to'rtta umumiy qonuniyat ajratib chiqarildi.

Birinchi qonuniyat: Texnik ustunlik shahar muhitida kamroq qaytariladi. Grozni, Hue, Falludja va Mosulda texnik jihatdan kuchsizroq mudofaachilar o'zlaridan ancha kuchli hujumchilarni uzoq muddat va katta talofatlar bilan bandlab qo'ya olgan [4, b. 198; 14, b. 74].

Ikkinchi qonuniyat: Kichik taktik guruhlar – ishg‘ol guruhi, uchlik harakati, kichik askar guruhi - shahar janglarining universal taktik birligi bo'lib qolmoqda. Bu guruhlar sondan ko'ra malaka va moslashuvchanlik bilan ajralib turadi.

Uchinchi qonuniyat: Muhit haqidagi bilim - shahar topografiyasini, yer osti tizimini, bino konstruksiyalarini va mahalliy aholining joylashuvini bilish - muvaffaqiyatning hal qiluvchi omillaridan hisoblanadi [5, b. 134].

To'rtinchi qonuniyat: Shahar janglari doimo axborot, psixologik va siyosiy o'lchovlarni birlashtiradi. Sof harbiy g'alaba yetarli emas; aholi qo'llovi va siyosiy legitimlik strategik natijaning zaruriy sharti bo'lib qolmoqda [15, b. 245; 16, b. 94].

Xulosa va tavsiyalar - Shahar sharoitida jangovar harakatlar olib borish taktikasining tarixiy evolyutsiyasini kuzatish qator muhim xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Harbiy taktika texnologik o'zgarishlarga doimo kechikib moslashib boradi. Portativlardan drongacha bo'lgan har bir yangi qurol texnologiyasi dastlab bir tomonga taktik ustunlik bergan, so'ng qarshi choralarning ishlab chiqilishi bilan bu ustunlik barham topgan. Klauzevsits ta'bir etganidek, urush - bu ikki tirik iroda o'rtasidagi aks harakatlar dialektikasi [7, b. 198].

Shahar janglari barcha davrlarda maxsus tayyorgarlik talab etgan. Ochiq maydondagi jangga tayyorgarlik ko'rgan qo'shinlar shahar muhitida o'zlarining taktik ustunliklari - mobillik, urashuv kuchi, muvofiqlashtirilgan operatsiyalardan foydalanolmay qolgan. Bu holat Grozni-I da, Hue'da va boshqa ko'plab jang maydonlarida qayta-qayta tasdiqlangan.

Harbiy texnik ustunlik strategik maqsadni almashtirolmaydi. Falludja operatsiyasi taktik muvaffaqiyat bilan tugadi, biroq strategik natijaga olib kelmadi. Demak, taktik rejalashtirish strategik maqsad bilan uzviy bog'liq bo'lishi shart.

Amaliy tavsiyalar:

Birinchi tavsiya. Kichik taktik guruhlar taktikasi - shu jumladan vertikal jangni, yer osti tizimida harakatlanishni va dronlarga qarshi choralarni - zamonaviy o'quv dasturlariga kiritish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi tavsiya. Axborot ustunligi va psixologik operatsiyalar zamonaviy shahar janglarining ajralmas qismiga aylangan. Harbiy kadrlar tayyorlashda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar muhitida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Uchinchi tavsiya. Tarixiy shahar muhorabalari tajribasi - xususan, Stalingrad, Grozni va Mosul janglaridan olingan saboqlar - harbiy tarix o'quv fanlarida majburiy o'rganish predmeti sifatida ko'rilishi tavsiya etiladi.

Umuman olganda, shahar jangining tabiiy murakkabligi o'zgarmaydi. O'zgaradigan narsa faqat qurollar, aloqa tizimlari va taktik usullardir. Bu o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish, ularni o'rganish va o'z qo'shinlarini shunga tayyorlash - zamonaviy armiyadagi rahbar va komandirlarning hal qiluvchi vazifasidir.

Foydalanilgan manbalar:

1. Goldsworthy A. Caesar: Life of a Colossus. - New Haven: Yale University Press, 2006. - 608 b.

2. United Nations, Department of Economic and Social Affairs. World Urbanization Prospects: The 2018 Revision. - New York: UN, 2019. - 126 b.

3. UN DESA. World Urbanization Prospects: The 2018 Revision. Key Facts. - New York, 2019. - 2 b.

4. Scales R.H. Clausewitz and World War IV // Military Review. - 2006. - Vol. 86, №4. - B. 14–21.

5. U.S. Army. Field Manual 3-06: Urban Operations. - Washington: Department of the Army, 2006. - 340 b.

6. Turnbull S. The Ottoman Empire 1326–1699. - Oxford: Osprey Publishing, 2003. - 192 b.

7. Clausewitz C. von. On War / Ed. and transl. by M. Howard, P. Paret. - Princeton: Princeton University Press, 1984. - 732 b.

8. Keegan J. The Face of Battle. - New York: Penguin Books, 1978. - 368 b.
9. Glantz D.M., House J.M. To the Gates of Stalingrad: Soviet-German Combat Operations, April–August 1942. - Lawrence: University Press of Kansas, 2009. - 647 b.
10. Ziemke E.F. Battle for Berlin: End of the Third Reich. - New York: Ballantine Books, 1968. - 216 b.
11. Scales R.H. Firepower in Limited War. - Novato: Presidio Press, 1995. - 296 b.
12. Hammel E. Fire in the Streets: The Battle for Hue, Tet 1968. - Pacifica: Pacifica Press, 1991. - 393 b.
13. King A. Urban Warfare in the Twenty-First Century. - Cambridge: Polity Press, 2021. - 288 b.
14. Thomas T.L. The Battle of Grozny: Deadly Classroom for Urban Combat // Parameters: US Army War College Quarterly. - 1999. - Vol. 29, №2. - P. 87–102.
15. King A. Urban Warfare in the Twenty-First Century. - Cambridge: Polity Press, 2021. - 288 b. [2-iqtibos]
16. West F. No True Glory: A Frontline Account of the Battle for Fallujah. - New York: Bantam Books, 2005. - 352 b.
17. Knights M., Mello A. The Islamic State's Mosul Campaign: Winning the War but Losing the City // CTC Sentinel. - 2017. - Vol. 10, №4. - B. 1–9.